

## TALABALARNI MA'NAVIY-MA'RIFIY RUHDA TARBIYALASHDA ZAMONAVIY YONDOSHUVLAR

*Normo'minova Gulhayo Shavkatovna*  
*O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti,*  
*Pedagogika kafedrası assistenti*

### Annototsiya

Ko'plab tadqiqotchilar tomonidan talabalarni ma'naviy-ma'rifiy ruhda tarbiyalashning ahamiyati yuzasidan turli tadqiqot ishlarini olib borganlar. Yoshlar tarbiyasi, ta'lim sohasini modernizatsiyalash va san'at vositalari orqali ularni estetik tarbiyalash masalalari Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan muntazam ilgari surilgan va muhim vazifalar soha mutaxassislari zimmasiga yuklangan. Ushbu maqolada ham talabalarni ma'naviy-ma'rifiy ruhda tarbiyalashda divergent tafakkurning o'rnini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash va jarayonga yo'naltirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ma'naviy-ma'rifiy ruh, esteti tarbiya, divergent, modernizatsiyalash, oila, kompetentlik va kreativlik;

Yosh avlod tarbiyasi va uning natijasi ijtimoiy hamda shaxsiy manfaat kasb etadi. Yaxshi tarbiya faqat oila uchun quvonch, baxt-saodat, ruhiy va iqtisodiy boylik keltirib qolmay, shu bilan birga, jamiyat uchun zo'r siyosiy-ma'naviy ahamiyatga ega.

Inson kamolotining yana bir muhim shartlaridan, bu - yosh avlodning aqliy, intellektual jihatdan yetilishidir. Hozirgi kunda bu jarayon davlatimiz siyosati darajasiga ko'tarilishi juda quvonarlidir. Bu esa, ta'lim va tarbiya jarayonining barcha mutasaddi shaxslaridan islohotlarni amalga oshirish yo'lida yanada samarali mehnat qilishimizni, bugun kechagiga nisbatan, ertaga bugungiga nisbatan unumli mehnat qilishimizga chorlaydi. Zero, kelajak avlod haqida qayg'urish, barkamol naslni tarbiyalab voyaga yetishtirishga intilish, bizning milliy xususiyatlarimizga xos fazilatdir.

Milliy va an'anaviy ta'lim tizimiga e'tibor berar ekanmiz, har bir ustoz yoki otana o'z farzandi yoki shogirdini tarbiyalash jarayonining uning ijodkorligiga, yangi g'oyalar bunyod etishiga, har bir ijtimoiy holatga yangicha fikr va qarash bilan munosabatda bo'lishga o'rgatadi va bu usulni har bir soha yoki tarmoqning fundamental asosi sifatida qaraladi.

Jahon ta'lim tizimida 60-70 yillarda kompetentlik va kreativlik tushunchasi paydo bo'lib, ta'lim tizimiga joriy etilgan. Bizning mamlakatimizda shaxs kreativligi va kompetentligi bo'yicha jahon tajribasini qo'llash mustaqillik yillarida amalga oshirila boshladi. Kompetentlik va kreativlik talaba yoshlarning ma'lum bir sohadagi

bilimdonli va maqsad sari qilinayotgan ijodkorligi bo'lib, bu bevosita ijodkor yoshlarni tarbiyalashdek muhim vazifani amalga oshiradi.

Talabarning ijodkorligini rivojlantirish, mamakatning intellektual boyligi kafolati bo'lib, ijodkor shaxslarni tarbiyalash orqali yoshlarning divergent tavakkurini rivojlantirish hozirgi kun pedagogikasining asosiy masalasidir.

Talaba yoshlarni mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash jarayonida amalga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ma'naviy va madaniy vazifalarning tub mohiyatini anglaydigan malakali mutaxassis, insonparvar shaxs sifatida tarbiyalash, bo'lajak mutaxassisliklarda mustaqil ijodiy faoliyatga tayyorlashni o'z-o'zini anglashning ahloqiy asoslarini, mantiqiy fikrlashni, jamoani boshqarish malakalarini shakllantirishni, ularni, hayotda o'z o'rnini topish, o'z taqdirini o'zi belgilashni, keladikka bo'lgan ishonchni, mamlakatimiz kelajagini, buyukligini barcha sohalardagi erishayotgan yutuqlari bilan tushuntirib borishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

– Talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar zaminida, mustaqil O'zbekiston Respublikasining haqiqiy fuqarolari etib shakllantirish;

– Talabalar milliy g'ururini shakllantirish;

– Xalqimiz qadimiy urf odatlarining eng yaxshilarini tarannum etish va boyitib borish;

– Vatan oldidagi fuqarolik va farzandlik vazifalarini sitqidildan bajarishga tayyorlash;

– Mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga o'tishi munosabati bilan olib borilayotgan ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga talabalarni tayyorlash;

– Mamlakatimiz ichki va tashqi siyosati talabi darajasidagi yosh mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ish olib borish;

– Talabalarda kasb xunarni egallashga ma'suliyatni oshirish;

– Milliy, oilaparvar, ota-ona, qo'ni-qo'shni, mahalla, el-yurt oldidagi burchlarini anglashga bo'lgan munosabatni tarbiyalash;

– Talabaning shaxs sifatidagi, o'ziga xos individual fazilatlarni shakllantirish va takomillashtirish;

1. Talabalarni ijtimoiy faollik, tashabuskorlik, o'qishga va kasbga bo'lgan hurmat va ijtimoiy ma'sullik hissini keng targ'ib qilish;

2. Talaba yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning bilim olishlar va sog'lom hayot kechirishlari uchun barcha qulayliklar yaratish;

3. Talabalar ijtimoiy-siyosiy va huquqiy ongini rivojlantirish, ularda tanqidiy va tahliliy fikrlarini kengaytirish.

4. Jamiyatdagi salbiy illatlar, ya'ni adolatsizlik, ko'zbuyamachilikka, poraxo'rlikka, tanish-bilishchilik va mahallachilik kabi illatlarga qarshi kurash;

5. Xalqaro terrorizm, diniy va siyosiy ekstremizm, giyoxvandlik va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash borasida talaba-yoshlar o'rtasida mafkuraviy imunitetni qaror toptirish;

6. Manzillashgan ma'naviy-ahloqiy ishlarni takomillashtirib borish.

– Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya jarayonidagi boshqarish tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borish;

– Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlar rejasi va dasturlarini ishlab chiqish va uning amalga oshirilishini nazorat qilish;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Oliy ta'lim vazirligining buyruq va ma'lumotlarini shuningdek "ta'lim to'g'risida"gi qonunda va "kadrular tayyorlash milliy dasturi"da belgilangan vazifalarni talabalarga, gurux murabbiylarga va professor-o'qituvchilarga o'z vaqtida etkazishni, tashkil etish;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ma'ruzalari Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlarni talabalarga, professor-o'qituvchilarga o'z vaqtida etkazish, har tomonlama tushuntirish ishlarini tashkil etish;

– Ustoz-shogird tizimini takomillashtirib borish tizimini yo'lga qo'yish;

– Ustoz-murabbiylar tomonidan o'tkazilayotgan murabbiylik soatlarini samarali o'tkazilishini ta'minlab borish;

– Universitetda o'tkaziladigan "Ma'naviyat kuni" tadbirlarining mazmunli o'tkazilishini tashkil etish;

– Turli xildagi tarbiyaviy yo'nalishdagi uchrashuvlar o'tkazish;

– Huquqbuzarlikning oldini olish maqsadida xuquq-tartibot idoralari bilan hamkorlikda ishlash tizim takomillashtirib borish;

– Talaba-yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi masalalariga oid ilmiy-uslubiy va amaliy adabiyotlar, qo'llanmalar tayyorlab borish va ularni chop ettirish ishlarini amalga oshirish hamda tarbiyaviy ahamiyatga molik adabiyotlar bilan ta'minlash;

– Talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni tashkil qilish;

– Talabalar turar joyida va ijarada yashovchi talabalarning yashash sharoitlarini muntazam nazorat qilib borishni tashkil qilib borish;

– Universitetda sport-sog'lomlashtirish, maishiy xizmat, ovqatlanish, dam olish, madaniy xordiq chiqarish tizimlarining uzluksiz, sifatli ishlashini ta'minlash maqsadida nazorat qilish;

– Universitetda turli xildagi ko'rik-tanlovlar, festivallar, spartakiadalar, olimpiadalar o'tkazishni tashkil qilish;

– Moddiy jihatdan kam ta'minlangan ko'p bolali oilalardan chiqqan, nogiron va chin yetim talabalarning moddiy ahvolini yaxshilash maqsadida, ularni ahvolini aniqlash hamda ijtimoiy muxofaza qilish bo'yicha muntazam ish olib borish va universitet rahbariyatiga takliflar kiritish;

- Bayramlar va allomalarning tavallud kunlari munosabati bilan turli mavzularda tadbirlar tashkil qilib borish;
- Talaba va professor-o'qituvchilarni kino-teatrlarga, muzeylarga, tarixiy ziyoratgoh joylarga tashriflarini tashkil etib borish;
- Universitetda talabalarning ota-onalari, mahalliy xokimiyatlar, hayriya jamg'armalari, mahallalar va fakultetlar tomonidan olib borilayotgan ishlarni tashkil etish va nazorat qilish;
- Talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar zaminida, mustaqil O'zbekiston Respublikasining haqiqiy fuqarolari etib shakllantirish;
- Talabalar milliy g'ururini shakllantirish;
- Vatan oldidagi fuqarolik va farzandlik burch va vazifalarini sitqidildan bajarishga tayyorlash;
- Universitetda ko'rik-tanlovlar, festivallar, spartakiadalar, olimpiadalar o'tkazishni tashkil etish;
- Respublika, viloyat, shahar va universitetda bo'ladigan turli jamoat ishlari, tadbirlarida professor-o'qituvchilar va talabalarni ishtirokini ta'minlash;
- Tarbiyaviy ishlar yo'nalishlari va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha taklif kiritish.

Universitetda professor-o'qituvchilarni mehnat-shartnomasida ko'rsatilgan ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaviy ishlar majmuasi bajarilmagan holda, rektorga tegishli takliflar kiritish.

Talabalarni o'quv yurtidan chetlashtirish yoki tiklash bilan bog'liq bo'lgan takliflar kiritish.

Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor bilan quyidagilar kelishishi kerak:

- O'quv jarayonida talabalarni kursdan-kursga o'tkazish, o'quv yurtidan chetlashtirish, kayta tiklash, rag'batlantirish yoki jazolash kabilar to'g'risidagi bo'yruqlar;
  - Kam ta'minlangan ijtimoiy himoyaga muhtoj professor-o'qituvchi va xodimlar, talabalar, ilmiy izlanuvchilarni ijtimoiy himoyasi bo'yicha takliflar kiritib borish;
  - Turli xil tanlovlar yakuni bo'yicha mukofatlarga tavsiyalar kiritish va ularni mukofatlashni tashkil etish;
  - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidagi, shuningdek Navoiy, Beruniy nomdagi maxsus stipendiyalarga talabalar va ilmiy izlanuvchilar orasidan nomzodlar tanlash;
  - O'qituvchi va talabalar orasidan xorijiy mamlakatlarga o'qishga, tajriba almashishga, malaka oshirishga va ishlashga yuboriladigan guruhlarni tuzish;
  - Mehnat bitimlari, attestasiya va kadrlar bilan ishlashga oid masalalar.
- Ma'naviy-m'rifiy masalalar yuzasidan dekanatlarga, kafedra mudirlariga va bo'lim rahbarlariga bevosita ko'rsatmalar berish.

Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i ish jarayonida faqat yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor va universitet rektoriga bo'ysunadi.

Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi quyidagi bo'limlar bilan yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor rahbarligida ish olib boradi.

1. Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor
2. Ustoz-murabbiylar Kengashi
3. Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi
4. Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosarlari
5. Madaniyat saroyi (yoshlarning hunarmandchilik markazi va turli yo'nalishdagi to'garaklar).
6. Jismoniy tarbiya va sport inshootlari
7. Talabalar va ilmiy izlanuvchilar turar joyi
8. Umum ovqatlanish va boshqa maishiy xizmat ko'rsatish
9. Jamoat komissiyasi va Kengashlar
10. Barcha ijtimoiy-gumanitar kafedralar
11. Ijtimoiy psixologik xizmat markazi
12. Universitet Salomatlik tibbiyot markazi.
13. Internet klublari.
14. Kutibxonalari.
15. Talabalar disput va debat klublari.
16. Universitet Sport klubi
17. Universitet muzeyi
18. Talabalar turar joylari
19. BKU qo'mitasi.
20. Yoshlar Ittifoqi boshlang'ich tashkiloti
21. Xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat Kengashi
22. Talabalar kengashi

Universitet talabalari orasida turli xildagi uchrashuvlar, davra suhbatlari, bahs-munozara kechalarini uyushtirib borish.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida, shuningdek "ta'lim to'g'risida"gi qonunda va "kadrilar tayyorlash milliy dasturi"dagi yangilik va ko'rsatmalarni talabalarga hamda professor-o'qituvchilarga o'z vaqtida etkazishni, tashkil etish;

- Xuquqbuzarlikning oldini olish maqsadida xuquq-targ'ibot idoralari xodimlari bilan xamkorlikda ishlashni tashkillashtirish;

- Talaba-yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi masalalariga oid ilmiy-uslubiy va amaliy adabiyotlar, qo'llanmalar tayyorlab borish va ularni chop ettirish ishlarini amalga oshirish hamda tarbiyaviy ahamiyatga molik adabiyotlar bilan ta'minlashni tashkil qilish;

- Talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va madaniy xordiq chiqarishlari uchun kontsert va kino, teatrlarga ziyoratgoh joylarga borishlarini shartnomalar asosida tashkil qilish;

- Ustoz-murabbiylar ish samaradorligiga erishish maqsadida ular bilan hamkorlikda muntazam ish olib borish;

- Talabalar turur joyida va ijarada yashovchi talabalarning yashash sharoitlarini muntazam nazorat qilib borish va ular bilan turli xildagi tadbirlar o'tkazishni tashkil qilish;

- Talaba va professor-o'qituvchilarni universitet va Respublikada o'tkaziladigan tanlovlarda va turli xildagi tadbirlarda qatnashishini ta'minlash hamda ularni Nizom asosida rag'batlantirib borishni tashkil etish;

- Universitetda sport-sog'lomlashtirish, maishiy xizmat, ovqatlanish, dam olish, madaniy xordiq chiqarish tuzumlarining uzluksiz, sifatli ishlashini ta'minlash maqsadida nazorat qilish;

- Ijtimoiy himoyaga muhtoj talaba va professor-o'qituvchilar tarkibini o'rgangan holda ularni ijtimoiy himoya qilish maqsadida rektoratga takliflar kiritish;

- Mustaqillik davrida e'lon qilingan barcha tadbirlarning mazmunli o'tkazilishini maxsus "Nizom" asosida tashkil etish va bajarilishini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, shahar va tuman hokimliklari tomonidan yuborilgan barcha moddemogramma va xatlarga o'z vaqtida javob tayyorlash;

Universitetda o'tkaziladigan va rejalashtirilgan tadbirlar uchun tadbirlar dasturi va rejalarini ishlab chiqish va bajarilishi bilan bog'liq muammolarni hal qilishda amaliy yordam ko'rsatib borish;

- Universitetda turli xildagi ko'rik-tanlovlar, festivallar, spartakiadalar, olimpiadalar o'tkazishni Nizom asosida tashkil qilish;

- Moddiy jihatdan kam ta'minlangan ko'p bolali oilalardan chiqqan, nogiron talabalarning moddiy ahvolini yaxshilash maqsadida, ularni ahvolini aniqlash hamda ijtimoiy muxofaza qilish bo'yicha muntazam ish olib borish;

- Bayramlar va allomalarning yubileylari munosabati bilan tadbirlar tashkil qilib borish;

- Professor-o'qituvchi va talabalarni kino-teatrlarga, muzeylarga, tarixiy ziyoratgoh joylarga tashriflarini tashkil etib borish;

- Universitetda talabalarning ota-onalari, mahalliy xokimiyatlar, hayriya jamg'armalari, mahallalar va fakultetlar tomonidan olib borilayotgan ishlarni tashkil etish va nazorat qilish;

- Talabalar turur joylarida va universitet miqyosida o'tkaziladigan tadbirlarning mazmunli o'tkazilishiga har tomonlama ko'maklashish.

Davlatimiz mustaqilligining mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy tarbiya va boshqa sohalardagi islohotlarining taqdiri, yurtimizning buyuk kelajagini barpo etish fuqarolarning, ayniqsa yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasiga, yuksak ongiligi, ijtimoiy faolligiga bevosita bog'liq. Shu bois mamlakatimiz mustaqillikining dastlabki kunlaridan boshlab ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalariga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida alohida e'tibor qaratib kelmoqda.

Zero, ta'dim-tarbiyani takomillashtirishda ham davlat bosh islohotchidir.

Ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlardan asosiy maqsad quyidagilardir:

Birinchi, ijtimoiy siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatishga umuman mamlakatdagi mavjud muhitni butunlay o'zgartirishga;

Ikkinchi, inson hayotda o'z o'rnini topishini tezlashtirishga;

Uchinchi, jamiyatga mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakillantirishga;

To'rtinchi, insondagi mavjud salohiyatni to'la ro'yobga chiqarishga;

Beshinchi, ongli, tafakkuri ozod, zamonvay dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etadigan komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Yoshlar ongini zaharlashga qaratilgan turli tahdidlar, ma'naviy xurujlar avj olgan bugungi murakkab sharoitda xushyorlik va ehtiyotkorlik zarurligini barchamiz angladik va his etib turibmiz. Chunki "ommaviy madaniyat" niqobi ostida yoshlar qalbiga chuqurroq kirib ularning ma'naviyatini zaharlashga o'rinayotgan "kuch"lar har birimizni tashvishga solmoqda. Muxtaram yurtboshimiz I.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida, "Tabiiyki, "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, individualizm, egosentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, ushning hisobidan boyluk ortirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi" [3,117].

Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xaf solmoqda va ko'pchilik butun jahonda bamisoli bolo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda" deb ta'kidlab o'tadi.

Shu boisdan ham yoshlar o'rtasida ma'rifiy targ'ibot tadbirlari tashkil etilib, ularni yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishini oldini olish choralarini ko'rish bugungi dolzarb vazifadir.

Jamiyat hayotida tarbiyaviy ish hamisha dolzarb bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Shu bois XX asrning jonkuyar pedagogi Abdulla Avloniy "Tarbiya bizlar uchun

yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir”- deb ta’kidlaganligi bugun o’z tasidig’ini topmoqda. Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya ishini davlat darajasidagi ustuvor vazifaga aylantirilishi ham jamiyatimizda yoshlarni ma’naviy barkamol, kuchli, bilim va yuksak taffakurga ega bo’lgan kadrlar qilib tarbiyalashda qanchalik muhim ish ekanligining isbotidir. Yosh avlodni ma’naviy tarbiyasida oila va mahallaning o’rni [beqiyos ekanligi](#), ular o’rtasida o’zaro hamkorlikni yanada kuchaytirish va takomillashtirish zarurligi, yoshlarni tarbiyalashda mahallaning o’rni muhim ahamiyatga ega.

Yoshlarimizni ma’naviy yetuk bo’lib yetishishida oila va mahalla birday mas’ul. Buning uchun birinchi navbatda ota-ona, mahalla har jabhada yoshlarga ibrat, o’rnak bo’lishi lozim. Yoshlarni ma’naviy tarbiyalashda oila va mahalla o’zaro hamkorlikda faoliyat ko’rsatsa, bu ikki tarbiya maskani tarbiya ishida katta samaradorlikka erishishi mumkin.

Oilada yoshlar tarbiyasini to’g’ri yo’lga qo’yishda mahalalarning o’rni kattadir. Chunki mahalla kishilarni birlashtiradigan, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo’lgan jamoa vazifasini bajarib kelgan.

Har bir oila biron-bir tadbir o’tkazmoqchi bo’lsa, avvalo mahalla bilan maslahatlashishga, turli xil muammolarni shu yerda hal qilishga harakat qilganlar. Shuning uchun ham milliy qadriyat hisoblanadiyu yillar davomida mahalalarda yangi yangi ma’naviy, ilmiy qadriyatlar vujudga kelgan, shakllangan va rivojlangan, xalqimizning turmush tarziga singib borgan.

Ma’lumki, bugungi kunda yoshlar tarbiyasida oila va mahalla hamkorligi o’rni tobora ortmoqda. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonunida oilaning jamiyat, davlat oldida ma’suliyatini anglab yetadigan komil insonlar tarbiyalashdagi o’rniga alohida e’tibor qaratilgan.

Tarbiya o’ta murakkab va serqirra jarayon bo’lib, yoshlar tarbiyasi, ularning ijtimoiy hayot jarayonidagi o’rni bugungi kunda sezilarli darajada ortib bormoqda. Oilada singdirib boriladigan odob-axloq qoidalari ijtimoiy foydali mehnat, ta’lim olish, bo’sh vaqtlarida tur xil to’garaklarga qatnashish yoshlarning kelgusi hayotlarida ijtimoiy huquqiy munosabatlarning faol subyektlariga aylanishlari muhim ahamiyatga ega. Yoshlarda ma’naviy shakllantirish esa eng muhim va murakkab vazifalardan biridir.

Yoshlar tarbiyasini yo’lga qo’yish avvalo oiladan boshlanadi. Ayniqsa, o’zbekona oila sharoitida shakllangan mehr-oqibat, ota-onaga hurmat, ular oldidagi burchlarga sadoqat bilan yondoshish, ona-Vatanga bo’lgan muhabbat kabi insoniy fazilatlar oilada shakllanadi. Oilada yoshlarni ma’naviy shakllantirishda barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishda ota-ona har tomonlama bilimdon, ustoz, ma’naviy, siyosiy va huquqiy bilimlarga ega bo’lishi lozim. Chunki, oilada bola ma’naviy olamini yaratadi, yaxshilik va yomonlik haqidagi eng sodda tushunchalarni shakllantiradi, atrofida sodir



bo'ladigan voqyea-hodisalarga ijobiy yoki salbiy fikrlarini bildira boshlaydi. Ayni paytda ota-ona o'zining bilimdonligi bilan to'g'ri va aniq yo'l ko'rsatishi, ijobiy fikrlashni to'g'ri yo'lga qo'yish, yaxshi yomonga ijobiy yoki salbiy munosabat bildirishlarini faqat va faqat tarbiya orqali amalga oshiradilar.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, dunyoning biror bir davlatida mahalla institutiga bo'lgan e'tibor bizning mamlakatimizdagidek emas. Shunga ko'ra, tarbiyada o'zaro hamkorlik va unga xos tajribalarni o'rganish hamda ommalashtirish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2017. – Б.39.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришни янги босқичга кўтариш тўғрисида”ги Қарори // Халқ сўзи, 2017 йил, 29 июль.
3. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида // Халқ сўзи, 2017 йил, 8 февраль, №28 (6722). – Б. 1-2
4. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.
5. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 488б.
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2018. 29. 12. – Б. 4